



## INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA YETIMLIK MOTIVI TALQINI

*Yuldasheva Iroda Farxatovna*

*f.f.d.dotsent, Buxoro Davlat Universiteti*

*Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub ertaklarning bir-biriga nisbatan farqli va o'xshash jihatlari aks etgan. Bundan tashqari bu farqlar to'g'risida vir necha olimlarning fikrlari ham o'z namunasini topgan.

**Kalit so'zlar:** ertak, janr, folklore, farzand, jmiyat, falsafa, xalq, yaxshilik, yomonlik.

**Abstract:** This article reflects the differences and similarities of English and Uzbek folktales. In addition, the opinions of several scientists about these differences have also found their example.

**Key words:** fairy tale, genre, folklore, child, society, philosophy, people, good, evil

### KIRISH

Bilamizki, ertaklar o'z-o'zidan paydo bo'lgan janr emas. Ularni asrlar davomida xalq og'zaki ijodi sifatida bizga qolgan meros hisoblanadi. Ertakning paydo bo'lishida xalqlar orasidagi qadimiy urf-odat va an'analar muhim o'rinn tutadi. Ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimiy namunalaridan biri hisoblanadi va bu janr og'izdan – og'izga o'tish usuli orqali xalqlar o'rtasida ajdoddan avlodga o'tib kelgan. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi olimlarning ta'kidlashicha, dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bir-biriga yaqin turgan janr bu – ertakdir.[1.2-jild.]

Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va xayotiy uydirmalar asosiga qurulgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikoyalarni ertak deb ataymiz. O'zbeklarda ertak aytuvchilar "ertakchi", "matalchi" deb atalgan.[1. 2-jild] E'tibor beradigan bo'lsak, ertaklarda ijobiy qahramon yovuzlik, adolatsizlikka qarshi kurashib g'alaba qozonadi. Chunki ertaklarning zamirida inson tarbiyasini shakllantirish va xalq orzu-umidlari, manfaatlari turgan bo'ladi. Har bir ertak mutolasi insonga qanchadan-qancha zavq-shavq beradi., uni komillikkha yetaklaydi, dunyoqarashini o'zgarishiga sababchi bo'ladi. Shu bois, mo'jizalar olamiga yo'l- ertaklar o'qishdan boshlanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shubhasiz go'zal, g'aroyib, bepayon hayol va aql olamiga qadam ertaklar yordamida qo'yiladi.

Ertaklarning tarbiyaviy jihatdan o'rni beqiyosdir. Chunki ular bolalarni sog'lom muhitda o'sib unishlari uchun imkoniyat yaratib beradi va to'g'ri yo'lga boshlaydi. Shu



o'rinda V.G.Gusev tomonidan fikrlarni eslatib o'tishimiz lozim deb o'ylayman. Uning fikricha, "Jamiyatda umuman inson tabiatidagi illatlar real hayotda o'z aksini topmagach, fantastik tarzda ertaklarda o'z yechimiga ega bo'ladi.[2.208-bet]" Binobarin, biz o'z farzandlarimizga ertak aytib berish orqali ularni kelajakda barkamol avlod bo'lib yetishishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

### Muhokama va natijalar

Asrlar o'tishi bilan olimlar ertaklarni tuzilishi va ma'no mazmuniga ko'ra turli xil guruhlarga ajratishdi.[1. 2-jild] Bunga misol qilib, hayvonlar haqidagi ertaklar, hayotiy ertaklar, sehrli ertaklar va hajviy ertaklarni misol qilishimiz mumkin.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning mazmuni majoziy ya'ni, kochma ma'noda bo'ladi. Olimlar haqli ravishda ilmiy tasavvurlarni rivojlanishida, falsafaning, adabiyotning, me'morchilik, musiqa va teatr san'atlarining paydo bo'lishida miflar o'ziga xos manba bo'lib xizmat qilgan, deb ta'kidlashadi.[3.4-nashr.] Eng qadimgi ertaklarda xalqlarning urf-odatlari, an'analari, marosimlari aks etgan.

Inglizlarda Angliya eng mashhur bolalar ertaklarining vatani bo'lган. Folklor hikoyalarida boshqa Yevropa mamlakatlariga o'xshab, ingliz ertak an'anasi Britaniya orollarida paydo bo'lган deb hisoblangan. Bu folklor asrlar davomida hikoya qilish an'analari orqali rivojlangan va mamlakatning turli mintaqalarida o'ziga xos madaniyati bilan noyob hisoblanadi. Shunday qilib, Angliyaning ertak va folklor an'analari, german va nasroniy manbalari bilan mustahkam aloqaga ega. [4.97-102 betlar]

Men, ushbu maqolam orqali o'zbek xalqining mashhur ertaklaridan biri bo'lган "Podachining qizi" ertagi bilan ingliz xalqining eng mashhur ertaklari qatoriga kirgan "Cindrella" ertagini bir biriga qiyoslab bermoqchiman.

"Podachining qizi" ertagidagi podachining qizi ijobiq qahramon sifatida qatnashadi. U juda ham sabr toqatli, maftunkor va mehnatkash qiz sifatida o'zbek xalqi orasida mashxur. O'gay opasi esa dangasa, ishyoqmas, yalqovlik bo'yicha ertak qahramonlariga aylangan. Ming afsuski, podachining qiziga har kuni o'gay onasi va o'gay opasi kun bermas, unga tinimsiz ish qildirar va ubning ustidan mazah qilib kulishardi.

"Cindrella" ertagida ham Cindrella ijobiq qahramon sifatida qatnashadi. U ham ertakda o'gay qiz sifatida qatnashadi.

Ingliz va o'zbek o'gay qiz turkumli ertaklarning asosiy o'xshashligi shundaki, ikkala millat ertaklarida ham asosiy funksiyasi to'rt xil bo'lган personajlar ishtirok etadi. Bular - o'gay qiz, raqib personaj – o'gay ona, "Cindrella" da sehrli vositalar bilan ta'minlovchi sehrgar pari qatnashsa, "Podachining qizi" da mehribon momo timsollarida namoyon bo'ladi. "Podachining qizi" va "Cindrella" ertaklarini taqqoslaysidan bo'lsak,



ikkalasida ham mushtarak g'oya ya'ni, o'gay qiz ezgulik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Podachining qizi va Cindrella obrazlarining ertakdag'i asosiy vazifalari o'gaylik vaadolatsizlik, yovuzlik va insofsizlikka qarshi chiqishi bilan belgilanadi. Ikkal xalq qahramoni ham odobli, o'ta haqgo'y, qat'iyatli, adolatparvar, mehnatsevar, garchi o'gay ona tazyiqi bilan mungli hayot kechirayotgan bo'lsalarda, kelajakka ishonch ruhi bilan yo'g'rigan pokiza qalb egasi. O'gay qizni tahqirlash turli ertaklarda turli xil tasvirlanadi. "Cindrella" bu hol o'gay qizni og'ir ish bilan band qilib qo'yish bilan boshlansa: "They took her pretty clothes away from her, put an old grey bedgown on her, and gave her wooden shoes. There she had to do hard work from morning till night, get up before daybreak, cayyr water, light fires, cook and wash"

"Podachining qizi" ertagida nuroniy va oqila momo bosh qahramonni sinash va yordam ko'rsatish kabi vazifalarni ado etadi. "Cindrella" da esa pari sehrli kuchlar vositasida o'gay qizga yordam qo'lini cho'zadi. Shuni aytish kerakki, "Cindrella" dagi pari sehrni ishga solib yordam qo'lini cho'zsa, "Podachining qizi" dagi momo aql zakovatni ishlatgan holda qahramonga ko'maklashadi ayni vaqtda do'stlik hamda hamkorlik timsoli sifatida yordam ko'rsatish kabi vazifalarni ado etadi, eng muhimi yovuzlikni qoralab yaxshilik yo'lida turgan kishilarni rag'batlantirish yo'li bilan adolatni qaror toptiradi. Ikkala ertaklarda ham yordamchi personajlar bo'lib, unda asosan tabiat bo'lagi bo'lmish hayvonot olami vakillari qatnashadilar.

Ikkal xalq ertaklariga bo'lgan yana bir o'ziga xoslik shundaki, ertaklar tabiat sehrli voqealar ko'lamenti bo'rttiradi, jonlantiradi. Bu xil elementlar yetakchi obraz tabiatdag'i ichki kechinmalarni belgilaydi. Aytish joizki, o'gay qiz turkumidagi ertaklar o'ziga xos xususiyati, nasihatomuz motivlari g'oyalari bilan ajralib turadi. Yana ikki ertakdag'i o'xshashliklardan biri shuki, bosh qahramon ideallashtirilib olinadi, bir vaqtning o'zida ideallashtirish bilan birga zulm zo'rlik qoralanadi, bu orqali o'quvchilarni ezgulik sari yetaklashga harakat qilinadi.

### Xulosa

E'tibor beradigan bo'lsak, ikkala ertakda ham bir-biriga o'xshash jarayonlar mavjud. Lekin bu ertaklar bir-biridan turli xalqlarga tegishliligi bilan farq qiladi. O'xshash jihatlaridan yana biri, bu ikki qiz bir xil sharoitda ya'ni o'gay on ava o'gay opalar qo'lida azoblanganliklari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ikkala qiz ham bu qiyinchiliklarga sabr-toqat bilan chidaganliklari ularning yuksak matonatlaridan dalolatdir. Shu qiyinchiliklarga qaramay, bu ikki qizning o'gay onalari va o'gay opalariga bo'lgan munosabatlari samimiyligicha qolaveradi. Bunday holatlar har bir qiz farzandga o'rnak qilib ko'rsatish uchun arziydi. Bunga qo'shimcha qiliob aytish mumkinki, bu ikki ertakda ham sehrgar ayol obrazi mavjudligi va qizlarga qiyin



vaziyatlarda yordam bergenliklari ertakning jozibadorligini oshirishga sabab bo'lgan. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ertaklar har bir bolaning nafaqat dunyoqarashini yuksaltirishga, balki mittigina murg'ak qalbini ezgulik bilan to'ldirishga ham xizmat qiluvchi yengilmas kuch hisoblanadi.[5]

**References:**

1. O'zbek xalq ertaklari. 2-jild. T-O'zbekiston Davlat nashriyoti. 1963
2. V.A.Maslova. "Lingvokulturologiya uchebnoye posobiye dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy. M.Akademiya "2001. 208s
3. V.A.Maslova "Lingvokulturologiya uchebnoye posobiye" 4-ye. Izd. M.2010
4. Kurguznekova. J.V. "Konseptualizatsiya jenskoy krasoti v angliyskoy yazikovoy kulture" Vestnik Rossiyskogo universiteta drajba narodov. 2016. Stranitsa 79-102
5. Fayllar.org. "Zumrad va Qimmat " hamda "Cindrella" ertaklari qiyosiy tipologiyasi
6. Karomat Kulmatova "Ingliz va o'zbek xalq ertaklarining o'xshash va farqli jihatlari" Maqola. Farg'onha shahar 10-IDUM ingliz tili o'qituvchisi